

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОNUНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

**ИЛМИЙ
ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ**

**SCIENTIFIC
ANALYTICAL
JOURNAL**

**НАУЧНО
АНАЛИТИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ**

2025
№2

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ**БОШ МУҲАРРИР:**

Гулямов Сайд Саидахаррович – юридик фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.

Хўжаев Шоҳжакон Акмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқғолов Омонбой – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаева – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич – ю.ф.д., доц.

Беков Иҳтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Соҳибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билилович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун куйидагиларга мурожаат этиш сўралади:

Гулямов Сайд Саидахаррович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
 ТДЮУ, Халқаро хусусий хуқуқ кафедраси,
 Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
 Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
 Вазирлар Махкамасининг Олий Аттестация
 комиссияси журнallари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттirmайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик хуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча хуқуклар химояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети руҳсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига муроҳаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Нашриёт мухаррири: **Н. Ниязова**

Техник мухаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга руҳсат этилди – 28.06.2025

Нашриёт ҳисоб табоғи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
 ЖУРНАЛ**

2/2025

Maksud Sadikov

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

**FUQAROLARNING SUD INSTANSIYALARIGA
MUROJAATIDA DAVLAT BOJI QO'LLANILISHINING
AYRIM MASALALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqlolada fuqarolarning sud instansiylariga murojaat qilishi jarayonida davlat boji bilan bog'liq muammolar, ularning sabablari va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Sudga murojaat qilish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi bo'lsa-da, davlat boji miqdorlari va undirilish tartibi ba'zan bu huquqni amalga oshirishda to'siq bo'lib chiqmoqda. Muallif maqlolada mavjud muammolarni ochib beradi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: sudga murojaat qilish huquqi, davlat boji, sud instansiylari, huquqiy tartibga solish, sud islohotlari.

Abstract. This article analyzes the problems associated with state fees when citizens apply to courts, the reasons for their occurrence and legal grounds. Although applying to court is a constitutional right of citizens, the amount of state fees and the procedure for collecting them sometimes become obstacles to the implementation of this right. In the article, the author reveals existing problems and gives recommendations for their elimination.

Keywords: Right to apply to court, state fees, courts, legal regulation, judicial reforms.

Аннотация. В статье анализируются проблемы, связанные с государственной пошлиной при обращении граждан в судебные органы, причины их возникновения и правовые основания. Хотя обращение в суд является конституционным правом граждан, размер государственной пошлины и порядок её взимания порой становятся препятствием для реализации этого права. В статье автор раскрывает существующие проблемы и даёт рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Право на обращение в суд, государственная пошлина, судебные инстанции, правовое регулирование, судебные реформы.

Kirish

Sudga murojaat qilish –har bir fuqaroning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi. Demak, bu insonlarga davlat kafolati sifatida berilgan eng asosiy huquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida bu huquq inson hamda fuqarolarning huquq va kafolatlari sifatida keltirilib o'tilgan. Unga ko'ra har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqilanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabдор shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi, har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash

uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanganligi, har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqliligi, har kim davlat organlarining yoxud ular mansabдор shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetka zilgan zararning o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi aniq belgilab berilgan.

Shu bilan birga, sudga murojaat qilish jarayonida davlat boji to'lash majburiyi mavjud bo'lib, bu ayrim hollarda fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Xususan, iqtisodiy imkoniyatlarini cheklangan shaxslar uchun davlat boji sudga murojaat qilishda muhim moliyaviy to'siq bo'lib qolmoqda.

Davlat boji –bu sud instansiylariga murojaat qilganda yoxud yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganda sud xizmatlari uchun to'lanadigan majburiy to'lov bo'lib, uning huquqiy asoslari 2020-yil 6-yanvarda qabul qilingan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun davlat bojini belgilash, undirish, uni qaytarish va uni to'lashdan ozod qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat boji miqdori da've arizasidagi talablarga, da've qiyomatiga va ishning xarakteriga qarab belgilanadi. Masalan, mulkiy da'volar bo'yicha davlat boji da've qiyamatining ma'lum foizi sifatida undiriladi. Nomulkiy da'volar uchun esa davlat boji qat'iy belgilangan summada bo'ladi.

Sudga yuridik yoki jismoniy shaxslar o'zining buzilgan huquqi yoki qandaydir jamiyat manfaati uchun murojaat qilganda, o'zining buzilgan huquqi masalasida murojaat qilganda, muammosiz shikoyat yuborishi mumkin, aksincha qandaydir jamiyat va davlat manfaati uchun murojaat qilganda albatta to'lov bilan bog'liq holatlarda aynan yuqorida tilga olingen jamiyat manfaati bilan bog'liq jihatni e'tiborga olib, sudga murojaat qilishga bo'lgan xohishi to'xtashi mumkin. Chunki, pul masalasida shaxsiy emas, davlat va jamiyat manfaatlari yotgani uchun ham bu tanlovdan qaytadi. To'g'ri, fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri odil sudga murojaat qilish shartmi, degan savol tug'iladi. Vakolatli davlat hokimiyyati organlariga o'zlarini vakolatlari doirasida murojaat qilsa ham bo'ladiki... Shunday holatlarda, agar sudga murojaat qilishda to'lov bilan bog'liq ayrim imtiyozlarni qonunchilikka kiritilsa, odil sudlovga birinchidan ishonch ortib boradi. Bu tabiiy hol.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda davlat boji miqdori fuqarolarning moliyaviy imkoniyatlariga mutanosib emas. Masalan, yirik mulkiy da'volar bo'yicha boji miqdori sezilarli darajada yuqori bo'lib, kam ta'minlangan shaxslar uchun sudga murojaat qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

to'g'risida"gi va "Ma'muriy-tartib taomillar to'g'risida"gi qonunchilikka ko'ra, fuqarolar davlat organlariga murojaat qilishda ayrim hollarda shikoyatlari yetarli darajada ta'minlanmaydi. Shuning uchun odil sudga ishonishi va u orgali ta'minlashini istaydi, lekin davlat boji masalasida esa cheklovni borligini uni bu yo'ldan qaytishiga olib keladi. Taklif shuki, jismoniy va yuridik shaxslarga faqatgina davlat va jamiyat manfaati mavjud hollardagina davlat boji masalasida kafolatlar berilishi, maqsadga muvofiq. Shundagina vakolatli davlat hokimiyati organlari o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini o'z vaqtida so'zsiz ta'minlay oladilar. Deylik, biror bir davlat organiga o'ziga yuklatilgan masalasida murojaat qilsangiz, javob xatida keltirilgan ma'lumotlar asosziz va o'rganilmagan bo'ladi. Eng achinarlisi, xatni so'nggi qismida javob xatidan norozi bo'lsangiz yuqori turuvchiga yoxud sudga shikoyat qilishingiz mumkin deb yozadi. Lekin, amaliyotda bu kamdam kam holatlarda sudga shikoyat qilinadi. Chunki, davlat boji borligini bilgan fuqarolar, menga nima, degan fikr bilan ishni shu bosqichda yakuklaydi. Bu kabi yuridik amaliyotlar shaxsan o'zimda ham ko'p kuzatiladi.

To'g'ri, davlat boji bo'yicha qonunchilik ayrim toifadagi shaxslarga imtiyozlar va bojsiz murojaat qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Biroq amaliyotda bu imkoniyatlarni rasmiylashtirish tartibi murakkab va ortiqcha hujjatlar talab etiladi. Bu esa fuqarolar uchun qo'shimcha to'siq bo'ladi. Bu esa masalani ikkinchi tomoni. Ba'zi hollarda sudlar tomonidan davlat boji bo'yicha turlicha yondashuvlar qo'llaniladi. Xususan, imtiyoz berish masalasida sudlar qarorlarida bir xillik yetishmaydi.

Davlat boji boshqa turdag'i majburiy to'lovlar qatori O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning tarkibiy qismini tashkil etishi bois, sudlar har qanday sud bosqichiga ishi tushgan shaxslardan ish bo'yicha davlat bojini undirish to'g'risidagi qonun talablariga qat'i rioya etishlari shart.

Fuqarolik sud ishlarida davlat boji bilan bog'liq masalalarni ayrim jihatlarini ko'rsak.

FPKning 127-142 moddalarini bevosita davlat bojiga atalgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 138-moddasi 2-qismida agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan bo'lsa deyiladi, ushbu moddada ko'rsatilgan summalar javobgardan da'vogarga talablarning sud tomonidan qanoatlantirgan qismiga mutanosib ravishda, javobgarga esa da'vogar arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirib beriladi, deyilgan. Kodeksning 141-moddasida esa ishni ko'tish bilan bog'liq bo'lgan va da'vogar to'lashdan ozod qilingan sud chiqimlari hamda davlat boji javobgardan arz qilingan talablarning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda davlat daromadiga undiriladi, deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2024-yil 16-dekabrdagi 37-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida"gi qarorida sudga ishi tushib, da'vo arizasi bergan fuqarolik sud ishlarida sudlar tomonidan davlat bojini qo'llash masalasida ajoyib bir tushintirish berib o'tilgan.

Amaliyotdan misol. 2022-yil may oyida davogar Ipoteka bank ATIB Namangan filiali javobgar Xudjayev Alisher Akramxo'jayevichdan ipoteka shartnomasi bo'yicha ushbu kreditdan kelib chiqqan qarzdorlikni undirish bo'yicha fuqarolik sudiga da'vo arizasi kiritadi va 121.660.560 so'm asosiy qarz, 6.929.120 so'm foiz qarz, 909.123 so'm muddati o'tgan qarz, jami 129498803 so'm undirishni va davlat bojini keyinchalik javobgardan undirishni so'raydi. Sud yakunda javobgardan 7.751.963 so'm kredit qarzdorligi va 21.000 so'm pochta xarajati va 310.000 so'm davlat boji undirishni lozim deb topib, da'voni qisman qanoatlantiradi. Javobgar bu summalarini karantin bo'lishiغا va vaqtincha ishsiz ekanligini qaramasdan sudning qarorini o'z vaqtida ijo etadi. Lekin, 2023-yil sentabrida Savdo-sanoat palatasining Namangan viloyati boshqarmasi tomonidan Ipoteka bank ATIB Namangan filiali manfaatida sudga da'vo arizasi kiritilib, javobgar Xudjayev Alisher Akramxo'jayevichdan 2022-yil iyun oyidagi sudning xal qiluv qarori xulosa qismida davlat boji xato hisoblanganligini vaj qilib, suddan FPKning 261, 271-271 moddalarini asoslagan holda, boshqattan xal qiluv qarorini xulosa qismidagi 310.000 so'm bo'lgan davlat bojini texnik xatolik deb, davlat boji summasini 5.181.146 so'm etib hisoblatib ajrim chiqarishga erishadi.

Yuqoridagi keysda sudning ushbu harakatida davlat bojini qo'llash masalasidagi birinchi harakatiadolatli va qonuniy bo'lsa-da, ammo 2023-yilda amalga oshirilgan savdo-sanoat palatasining Namangan viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan kiritilgan da'vo arizasi bo'yicha qabul qilgan ajrimi yuqorida nomlari aytilgan qonunchilik hujjatlari bo'yicha noto'g'ri. Bu yerda palataning vaji oldin kiritilgan da'vo talabidan kelib chiqqanligidir.

Shundan kelib chiqib, davlat bojini to'lashdan ozod etilgan davlat organlari va boshqa organlar qatori, davlat fuqarolarga ham doimo qo'shimcha kafolatlarni berib borishi kerak. Bunda eng asosiy mezon davlat va jamiyat manfaati bo'lishi kerak. Shuningdek tashkilotlarning yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab taqdim etilgan da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlari ko'zlanib da'vo taqdim etilgan shaxslardan (agar ular qonunga muvofiq davlat boji to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa) da'vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirilishi lozim. Bu birlina yuqoridagi misollarimizda ham keltirilgan.

Eng avvalo, davlat boji fuqarolarning sudga murojaat qilish jarayonida iqtisodiy to'siqqa aylanib qolmasligi kerak. Shu sababli davlat boji siyosatini yanada liberallashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun imtiyozlarni kengaytirish, tartib-taomillarni soddalashtirish davlat sud islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4680944>

3.Islomov F. Sud boji va uning huquqiy tartibga solinishi // Yuridik fanlar jurnali. -2021. №4. B. 30-35.

4. Karimova D. Fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi va davlat boji masalalari. Toshkent: Huquq nashriyoti, 2022.

5.O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qarori, 16.12.2024 yildagi 37-son. <https://lex.uz/docs/7305182>

6.<https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=60417>

7.<https://yuz.uz/uz/news/davlat-boji-togrisidagi-qonunga-qoshimcha-va-ozgartirishlar-kiritildi>